

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI
JAHON ADABIYOTI VA QIYOSIY ADABIYOTSHUNOSLIK KAFEDRASI

**“SHARQ MUMTOZ POETIKASI
MUAMMOLARI:
NAVOIY VA RUMIY”**

*mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy
konferensiya materiallari
2025-yil, 22-aprel*

MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND
INNOVATIONS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN
ALISHER NAVAI TASHKENT STATE UNIVERSITY
OF UZBEK LANGUAGE AND LITERATURE
DEPARTMENT OF WORLD LITERATURE AND
COMPARATIVE LITERATURE

*Proceedings of the international
scientific-theoretical conference titled*

**“ISSUES IN ORIENTAL CLASSICAL
POETICS: NAVO'I AND RUMI”**

April 22, 2025

Toshkent
“Nurafshon business”
2025

UO'K 845.711.05

KBK 133.585.3

“Sharq mumtoz poetikasi muammolari: Navoiy va Rumiy” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari. – Toshkent: Nurafshon business, 2025. – 1016 b.

ISBN 978-9910-8871-6-1

Mas'ul muharrir:

Shuhrat Sirojiddinov,

filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay'ati:

Shuhrat Sirojiddinov (O'zbekiston), Münevver Tekcan (Turkiya), Uzoq Jo'raqulov (O'zbekiston), Agnieska Vojta (Germaniya), Nozliya Normurodova (O'zbekiston), Rukhsana Iftikhar (Pokiston), Almaz Ulviy (Ozarbayjon), Suvon Meli (O'zbekiston), Sergey Nikonorov (Rossiya), Akibatxan Ismanova (Qirg'iziston), Makpal Orazbek (Qozog'iston), Aleksey Pilev (Rossiya), Nurboy Jabborov (O'zbekiston), Shafiqa Yorqin (Afg'oniston), Amir Ne'mati Lima'i (Eron), Nafas Shodmonov (O'zbekiston), Rakymjan Turysbek (Kazakhstan), Dilmurod Quronov (O'zbekiston), Gulnoz Xalliyeva (O'zbekiston), Dilnavoz Yusupova (O'zbekiston).

Sharq-islom madaniyatining ikki buyuk vakili – Alisher Navoiy va Jaloliddin Rumiy ijodi badiiyati, tarixiy-tipologik xossalarini ilmiy-nazariy tadqiq etishga qaratilgan “Sharq mumtoz poetikasi muammolari: Navoiy va Rumiy” mavzuidagi mazkur konferensiya materiallari ulkan geografik ko'lami, tipologik talqinlari, tahliliy xulosalari bilan o'ziga xosdir. To'plam to'rt bo'limdan tashkil topgan. Har bir bo'lim o'zicha mustaqil ilmiy muammoni aks ettirishi bilan birga, Navoiy va Rumiy poetikasi sathida o'zaro umumlashadi, jahon adabiyoti, qiyosiy adabiyotshunoslik, tarixiy hamda nazariy poetika, hozirgi adabiy jarayon muammolarini aks ettirishi bilan ma'naviy-ma'rifiy, badiiy-estetik ahamiyat kasb etadi.

Ilmiy to'plam adabiyot nazariyasi, adabiy tanqid, adabiyot tarixi, qiyosiy adabiyotshunoslik, tarjima nazariyasi, tarjimashunoslik bilan shug'ullanayotgan doktorant, tayanch doktorantlar; magistrant va bakalavriyat bosqichi talabalari, shuningdek, badiiy adabiyot masalalari bilan qiziquvchilar uchun mo'ljallangan.

To'plam Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Ilmiy-texnik kengashining 2025-yil 3-apreldagi yig'ilishi qaroriga asosan nashrga tavsiya etilgan.

**Mualliflar qarashlari tahririyat nuqtayi nazaridan
farqlanishi mumkin.**

© “Nurafshon business”, 2025.

Marifat RAJABOVA,
filologiya fanlari doktori professor,
(BuxDU, O'zbekiston)
Madina IBOTOVA,
O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qıtuvchısı
(Buxoro davlat pedagogika instituti, O'zbekiston)

RUMIY VA NAVOIY LIRIKASIDA KO'NGIL METAFORASI

Annotatsiya: Mazkur maqolada Sharqning daho ijodkorlari Mavlono Rumi va Alisher Navoiy merosida jon va ruh tasvirining badiiy ifodasi tahlilga tortilgan. Jon va ruhning badiiy talqini orqali ilgari surilgan tasavvufiy g'oya hamda ijodkorlarning badiiy mahorati masalalariga munosabat bildirilgan.

Kalit so'zlar: Qur'on, tasavvuf, jon, ruh, jism, ishq, ko'ngil, qafas.

Abstract: This article analyzes the artistic representation of the concepts of soul and spirit in the works of the great Eastern thinkers Mawlana Rumi and Alisher Navoi. It examines the mystical ideas conveyed through the poetic interpretation of the soul and spirit, and explores the authors' artistic mastery in expressing these notions.

Keywords: Qur'an, Sufism, soul, spirit, body, love, heart, cage.

Islom falsafasida keng muhokama qilinadigan mavzulardan biri jon va ruh haqidagi qarashlardir. Jon va ruh, tana va ruh, jon va o'lim o'rtasidagi munosabat falsafa, din va psixologiya, adabiyot kabi qator sohalarning muhim muammolaridan biri sanaladi. Boisi, qadimdan mazkur tushunchalar orqali inson va uning mohiyatini anglashga harakat qilib kelingan. Shubhasiz, jon va ruh haqidagi qarashlar insoniyatning o'lim va undan keyingi hayotning mavjudligini aniqlashga qiziqish bilan bevosita bog'liq.

Islom dinining asosi bo'lgan Qur'oni Karim ta'limotiga ko'ra ruh – hayot manbai. Arabcha "nafs" yoki "jon" deb nomlanuvchi ruh tushunchasi islom ilohiyotining muhim jihati bo'lib, islom dinining muqaddas kitobi Qur'on karimning turli oyatlarida uning yaratilishi, tabiati va maqsadi haqida ilohiy fikrlar keltirilgan. Qur'oni karimda ruh tushunchasi farishtalarga, insonning nafsig, shaxsiyati va aqliga nisbatan qo'llanilgan bo'lib, jonli mavjudotlardagi ilohiy o'lchovni anglatgan.

Ruh – badanning sultoni. U – abadiy. U o'z ta'siri bilan tananing hamma joyida mavjud, ammo uning o'rni yo'q. U tananing ichida ham, tashqarisida ham emas. Unga na uzoq, na yaqin. U bir vaqtning o'zida barcha vazifalarni boshqaradi, bir vazifa boshqasiga xalaqit bermaydi. Mavlono Rumining "Masnaviy" sidan keltirilgan quyidagi bayt fikrimizni tasdig'i uchun xizmat qiladi:

*Tan zi jonu jon zi tan mastur nest,
Lek kasro diydi jon dacmyr nest.*

Tarjimasi:

*Tan va jon ham jonu tan mastur emas,
Kumcaga jon ko'rmagi dastur emas.*

Badan jondan va jon badandan pinhon emas. Lekin jonni ko'rmak uchun kimsaga ruxsat berilmagan. Insonning badani zohir bo'lgani kabi pyh osori bo'lgan aql, zako, muhabbat, nutq, safo va necha-necha fuyuzoti jahonoro ham oshkoradir. Faqat aynan ruhni ko'rmak mumkin emas. Zero, ruh jism va moddadan ibrat bo'lmay, bir Rabboniy amrdir. Masalan, quyoshni har kun ko'ramiz. Uning vujudidan aslo shubhamiz yuq bo'lsa-da, tarkibotini bilmayiz. Tarkibotini bilmaganimiz boisidan vujudini inkor etsak, bundan buyuk ko'rlik bo'larmi? [4.33]. Ko'rinib turibdiki, inson tana va ruhdan iborat. Vujudimiz moddiylik olamiga tegishli bo'lsa, ruhimiz g'ayb olamidandir.

Inson go'sht va suyakdan iborat shunchaki moddiy narsa emas. Ishq-muhabbat, quvon, g'azab, nafrat, umuman, tasavvur va tafakkur kabi his-tuyg'ular materiya bilan tushuntirib bo'lmaydigan narsalardir. Materialistik falsafa a'zolari insonni faqat moddiy mavjudot sifatida ko'radilar. Biroq, insonning haqiqiy o'lchovi uning ruhiy jihatidir. Mavlono buni shunday ifodalaydi: *"Biz somonga o'xshash bu tabiat olami bilan qoplangan ma'no dengizimiz. Bizning tanamiz ruhimiz uchun parda va niqob bo'ldi."* Boshqacha qilib aytganda, kishi somon bilan qoplangan dengizga qarasa, bir qarashda faqat somonni ko'radi. Biroq, bu somon ostida ulkan dengiz yashiringan. Somon pardasi ochilganda dengiz ochiladi. Xuddi shunday, bizning moddiy tanamiz ruhimizni qoplaydigan somonga o'xshaydi, bu ma'no dengizidir.

Jaloliddin Rumiyning quyidagi baytiga e'tiborni qaratsak:

Joni man sahl ast, joni jonam o'st,

Dardmandu xastaam, darmonam o'st.

Tarjimasi:

*Menda jon yo'q, jonim u, jonimdur u,
Dardmandmen xasta, darmonimdir u [4. 60].*

Rumiyning so'fiylik falsafasida insonning haqiqiy joni, ya'ni ruhi, uning jismoniy holatidan ustun ekanligi ta'kidlanadi. Unga ko'ra, insonning haqiqiy joni, ilohiy muhabbatda yashaydi. Shoir lirik qahramoni o'zini jonsiz, xasta va dardmand tasvirlab, ma'shuqani "jonimning joni u", deydi.

Ma'lumki, ishq mumtoz adabiyot, ayniqsa, tasavvuf she'riyatining o'zak masalasi sanaladi. Islom bag'rida shakllangan tasavvuf ta'limoti va adabiyotida ilohiy ishq olam va odam mohiyatini belgilovchi asosiy mezon bo'lib xizmat qildi. "Allohni sevish", "Alloh uchun sevish" insonda o'ziga xos poklik, go'zallik va ulug'lilik sifatlarini shakllanishining asosi ekanligini mutasavvuflar ta'kidlab o'tadilar. Jumladan, ulug' shoir Alisher Navoiy lirikasida ruh va nafs "munozara"si ham ishq vositasida hal qilinadi. "Navoiyga ko'ra, tiriklik ayshi, avvalo, nafsni ruhga taslim aylash, ishq, ma'rifat, go'zallik nuri ila ko'ngulga ziynat berishdir" [5.18].

*Desang, Navoiy, jon aro mahbub bo'lgay jilvagar,
Avval ko'ngul ko'zgusidin mahv ayla naqshi mosivo [3. 4].*

Tarjimasi: "Ey Navoiy, agar mahbubing (Alloh) joning ichidan joy olishini istasang, avvalo ko'ngil ko'zgusini dunyo hoyu havaslaridan musaffo ayla".

Baytda "ko'ngil ko'zgusini" dunyo hoyu havaslaridan, nafs xoxish-istaklaridan xolos qilish zarurligi ta'kidlanadi. Boisi, nafs g'ulg'ulalaridan qutilgan hamda dunyo ne'matlaridan yuz o'girgan, poklangan ko'ngildagina Alloh tajalliy qiladi.

Mumtoz adabiyotda qo'llangan "jon qushi", "ko'ngil qushi", "g'am qushi", "xirad qushi" kabi qator birikmalar ham jon va ruhning badiiy ifodasi uchun xizmat qilgan.

"Jon qushi" iborasi Jaloliddin Rumiy ijodida ham keng qo'llangan:

*Murg'i jonash dar qafas chun metapid,
Dod molu on kanizakro harid. [4. 138].*

Tarjimasi:

*Jon qushi jon uzdi ul sultonning,
Mol berib oldi sotib jononni.*

Mumtoz she'riyatda vujudni qafas tashbehi bilan berish an'nana tusini olgan. Insonning hissiy yoki ruhiy jihatdan "qotib qolgan" holatlarini, uning ichki dunyosidagi "cheklanganlik" vaziyatlarini ifodalashda "qafas" metaforasiga tez-tez murojaat qilingan. Ulug' shoir Alisher Navoiy lirik merosida ham ruhni qushga, jismni qafasga qiyos qilish ko'p kuzatiladi.

Tabiat chohidin ruhungi qutqarkim, xush ermastur

Qafas qaydi aro bulbulg'a bo'lmoq muhtalo asru [1. 471].

Shoir ajoyib tasvirni hosil qilgan. Baytda ruh – bulbul, vujud – qafas timsolida tasvirlangan. Bulbulning maskani bog'-u rog'lar. U erkinlikni, ozodlikni sevadi. Ruh ham erkinlikni sevadi. Buning uchun u "*tabiat chohi*" – nafsoniy illatlardan ozod bo'lishi kerak. *Tabiat chohi* – dunyoga bog'lanib qolmoq. Ruhni bunday chohdan qutqarmaslik qafas ichidagi bulbulning holatini eslatadi. Ruhning asl maskani Alloh dargohi – jannat bog'laridir. Bunday maskanga faqatgina kamolga yetgan va jism qafasidan ozod bo'lgan ruhgina yeta oladi.

Shu g'oyaga hamohang g'oyani Rumiyning "Ma'naviy masnaviy" debochasida ham ko'rishimiz mumkin. Mavlono Rumi zang bosgan ko'ngil – (oyna)da ruh mumtozlikka erisha olmasligini go'zal tashbeh asosida badiiy talqin qiladi.

Oyinang bordir, nechun g'ammoz yo'q?

Anda zang bo'lsa, ruhi mumtoz yo'q [4. 227].

Mutasavvuf shoirlar o'limni tasvirlashda "*uchish*", "*sayohat*", "*ko'chib ketish*" kabi metaforalarni keng qo'llaganlar. Ushbu metaforalar o'limni insonning dunyoviy chegaralaridan tashqaridagi ruhiy sayohati sifatida tasvirlash imkonini bergan.

Navoiy mazkur an'anani davom ettirish bilan birga, o'ziga xos tasvirlar yaratganligini quyidagi baytlarda ko'rishimiz mumkin.

Ey Navoiy, tushta gar ko'rmak ani mumkin esa,

Barcha gar xud so'ngg'i uyqudur, netarsen uyg'onib? [2.66]

Xalqda "uyqu – o'lim" degan naql bor. Baytda lirik qahramon tushida ma'shuqasini ko'rganligi bilan bog'liq tasvir keltirilgan. Tushida bo'lsa-da vaslga musharraf bo'lgan lirik qahramon "so'ngi uyqu"dan uyg'otishlarini istamaydi. "So'ngi uyqu" – o'lim.

Umuman olganda, Sharqning buyuk daholari Mavlono Rumi va Alisher Navoiy yaratgan majoziy obraz va timsollar, bir tomondan,

islom mintaqada adabiyotning ma'no qatlamini kengaytirgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, o'z o'quvchisiga dunyoni yaxshiroq tushunishiga, hayotning mohiyatini anglashda nimalarga e'tibor berish kerakligi to'g'risida tasviyalar berishi bilan ahamiyatlidir. Boshqacha aytganda, daho ijodkorlar merosi mazmunigina emas, balki ular tanlagan majoziy ifoda uslubi ham adabiyotning, xususan, tasavvuf she'riyatining targ'ibi uchun xizmat qilgan.

Adabiyotlar

1. Alisher Navoiy Badoe' ul-bidoya. MAT. XX jildlik. I jild. – T.: Fan, 1987.
2. Alisher Navoiy. G'aroyib us-sig'ar. MAT. III jild. – T.: Fan, 1988.
3. Alisher Navoiy. Badoe' ul-vasat. MAT. XX jildlik. V jild. – T.: Fan, 1990.
4. Jaloliddin Rumi. Ma'naviy manaviy. Kuliyot. I jild. I kitob. Sharq, 1999.
5. Haqqulov I. Navoiyga qaytish. Istiqlof davri navoiyshunoligi. XI jild. – T.: Tamaddun, 2022.
6. Rajabova, M., & Amonova, Z. (2020). Navoiyshunoslik. Asian Book House.
7. Rajabova, M. (2021). ALISHER NAVOIY IJODIDA ETNOGRAFIK FOLKLORIZMLAR. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 4(4)
8. Ibotova, M. (2024). ALISHER NAVOIY SHE'RIYATIDA RUH SAYRINING BADIY TALQINI. Alisher Navoi and 21st century, 1(1).
9. Ibotova, M. (2024). Alisher Navoiy lirikasida ruhning badiy ifodasi. Alisher Navoi and 21 st century, 1(1).